

AN'ANAVIY POETIK OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI

Parpiyeva Moxiraxon Inomjon qizi

Farg 'ona davlat texnika universiteti o 'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek va ingliz shoiralari Zulfiya va Elizabeth Bishop she'riyati tahlil qilinib, ular ijodiga xos individual uslub qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki shoiraning tabiat, xotira, yolg'izlik va ayol hayoti bilan bog'liq obrazlarining o'xshashliklari va farqlari qiyosiy-tipologik aspektta o'rganiladi. Tarixiy-madaniy metod orqali ingliz va o'zbek she'riyatiga xos jihatlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tarixiy-madaniy metod, lirik tur, individual uslub, badiiy mahurat, poetik obraz, poetik g'oya.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ традиционных поэтических образов в узбекской и английской литературе на примере творчества двух выдающихся поэтесс – Зульфийи и Элизабеты Бишоп. В исследовании рассматриваются сходства и различия в использовании поэтических образов, связанных с природой, памятью, одиночеством и женской жизнью в произведениях обеих поэтесс. Через тематический и культурный анализ показано, как исторический и культурный контекст каждой поэтессы влияет на выражение этих образов. Работа подчеркивает, как обе поэтессы выражают сложность женского опыта, однако подходят к этому с разных культурных позиций.*

Ключевые слова: *историко-культурный метод, лирический жанр, индивидуальный стиль, художественное мастерство, поэтический образ, поэтическая идея.*

Annotation: *This article provides a comparative analysis of traditional poetic imagery in Uzbek and English literature, using the works of two prominent female poets, Zulfiya and Elizabeth Bishop. The study examines the similarities and differences in the use of poetic images related to nature, memory, solitude, and women's lives in both poets' works. Through a thematic and cultural analysis, the paper reveals how the historical and cultural context of each poet shapes the expression of these images. The research highlights how both poets convey the complexity of women's experiences, yet approach them from different cultural perspectives.*

Keywords: *historical-cultural method, lyrical genre, individual style, artistic skill, poetic image, poetic idea.*

She'riyatda badiiy obraz va uning ifodasi muammosi jahon adabiyotshunosligida atroflicha o'rganilgan. Badiiy obraz va uning ifodalanishi masalalari she'riyatda, asosan, ramziy-majoziy timsollar vositasida amalga oshirilgan. Bu jihatdan Arastu, G.V.Gegel, X.O.Gasset, V.Shklovskiy, B.Eyxenbaum, V.Jirmunskiy, L.Timofeev, M.B.Xrapchenko,

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Yu.Lotman, G.N.Pospelov, V.E.Xalizev kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari ahamiyatlidir. O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy obraz va uning ifodasi masalasi Fitrat, I.Sulton, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, A.Rasulov, H.Boltaboev, Y.Solijonov, A.Sharopov, U.Hamdammov, A.Sabirdinov, M.Yo'ldosheva, N.Mirzaeva, F.Radjabova, G.Oripova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

An'anaviy poetik obrazlar san'at va adabiyotda insonning his-tuyg'ulari, g'oyalari va qadriyatlarini ifodalashning samarali vositasi hisoblanadi. Бадий образ иждокор тасаввури асосида ўзгартирилган воқелик, ҳодиса бўлганлиги учун ҳам у бадийлик касб этади. “Образнинг эстетик моҳияти шундаки, унда инсон идеалининг аниқ кўриниши ифодаланган”⁶. Шундай экан, ҳар қандай бадий образда иждокор шахсияти муҳрланади. Профессор У.Ҳамдамов таъкидлаганидек: “Образ жуда кенг тушунча. У олам – объектив борлик ва иждокор – субъектив борлиkning ўзаро “тўқнашуви”дан пайдо бўлади. Образ – бу воқеликдан кўчирилган калка – нусха эмас. Унда иждокорнинг индивидуал ёндашуви акс этади”⁷.

АҚШ назариятчи олимлари Р.Уэллек ва О.Уорренлар образни уч элементдан: образ = метафора + рамз + мифдан⁸ иборат деб ҳисоблайдилар. Дарҳақиқат, образ метафориклик табиатига ва рамзийлик хусусиятларига эга бўлади

Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O'zbekiston xalq shoirasi, Xalqaro “Nilufar”, Javoharlal Neru, hamda respublikamizning Davlat mukofotlari sohibasidir. U 1915-yilda Toshkent shahrining qadimiy Dergez mahallasida tavallud topgan. Zulfiyaning dastlabki she'rlari “Hayot varaqlari” nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqqan. Shundan so'ng shoiraning “She'rlar” va “Qizlar qo'shig'i” (1938), “Uni Farhod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944), “Dalada bir kun” (1948), “Tong qo'shig'i” (1953), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Kuylarimsizga” (1965), “O'ylar”, “Shalola” kabi o'nlab she'riy to'plamlari chop etilgan. Zulfiya “Quyoshli qalam”, “Mushoira”, “Xotiram siniqlari” kabi dostonlarni yaratgan.

Zulfiya ijodidagi yetakchi mavzulardan biri bu hijron motividir. Shoira hijron motivini tabiat manzaralari bilan uyg'unlashtirib yuborishga, borliqdan o'z his-tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalab bera oladigan manzaralar, narsalar, voqea-hodisalarni topa olishga usta shoira. U Hamid Olimjon singari borliqdagi har bir hodisada, manzarada yorining betakror timsolini ko'radi. Butun borliq uning nazarida o'zining sevimli shoirini yo'qotib qo'yganday tuyuladi. Har biri uni so'roqlaydi, topa olmay xunob bo'ladi, iztirob chekadi. Zulfiyaning “Bahor keldi seni so'roqlab...” she'ridagi borliqni uyg'otuvchi bahor ana shunday timsollardan biri. U shabbodaga aylanib, goh qishdan, goh yashil yaproqlardan, goh bog'lardan, goh tog'lardan, goh qirlarga chiqqan qo'ychivonlardan uni so'roqlaydi.

⁶ Тимофеев Л. И. Теория литературы. – М.: Учпедгиз, 1946. - С.46.

⁷ <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/913>

⁸ Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Topa olmay shoir xonadoniga tashrif buyuradi, farzandlarini o'pib erkalaydi, shoiraning yosh kuydirgan za'far yanog'iga singadi, o'zining kelganligidan xabar beradi. Lekin bu yerda ham uni topolmay yana sarsari yellarga aylanib, shoirani savollarga ko'mib tashlaydi. Bu savollar shoira qalbini tilkalaydi, uning dardini yangilaydi, qalbi cheksiz iztirob tuyg'ularidan o'rtanadi, Bahorning savollariga javob topolmay, tili lol bo'ladi. Shoira kabi ayriliqqa chiday olmagan Bahor alamdan o'zini dov-daraxtlarga uradi, kurtaklarni uyg'otib dardlarini so'ylaydi. Bu dardli qo'shiqni tinglagan gullar g'unchalarini chok-chok etib qonga belanadi. Butun olamni gul-u rayhonlarning shoir sevgan xushbo'y atri qoplaydi, borliqqa mayin, lekin hayotbaxsh, otashin bir qo'shiq taraladi. Demak, shoir hayot, uning she'rlari qo'shiq bo'lib elining yuragidan joy olgan, yurtining har bir go'shasida yangramoqda:

Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi.

Hamid Olimjon yaratib ketgan bahor simfoniyasi shoira qalbida jaranglaydi:

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi, jo'shqin zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbmida, sozing qo'limda
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Ushbu satrlarni o'qir ekanmiz, hassos shoraning cheksiz sadoqatiga yana bir karra guvoh bo'lamiz. Shoira "Men ham hali sensiz olmadim nafas" misrasi bilan yorining xotirasi bir zum ham yodidan ko'tarilmaganligini, aksincha, bu xotira uni hayotni kuylashga, amlarni yengishga chaqirganligini ta'kidlaydi va "Men hayot ekanman, hayotsan sen ham..." deya kuylaydi.

Zulfiya ijodida sog'inch, hijron tuyg'ularining yorqin ifodalaridan biri bu o'rik gullaridir. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rida ushbu poetik detalga murojaat qilganligining guvohi bo'lamiz:

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni...

Bundan tashqari Zulfiya 1947-yilda yozilgan "O'rik gullaganda", 1979-yildagi "O'riklar gullar" she'rlarida ham bu poetik detalga qayta-qayta murojaat qilgan. Bundan ko'rinadiki, bu she'rlarning har birida o'rik gullarining Hamid Olimjon hayotida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilgan.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Tadqiqotimizda Zulfiyaning "Onajon", "Ayol sadosi", "Bahor keldi seni so'roqlab" kabi she'rlari Elizabeth Bishopning "One Art", "The Fish", "In the Waiting Room" kabi she'rlari bilan qiyoslangan va tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida asosiy poetik obrazlar va mavzularni solishtirish natijasida quyidagilar aniqlangan:

Tabiat obrazlari: Zulfiya she'rlarida o'zbek tabiatining go'zalligi va uyg'unligi tasvirlangan, Bishop esa tabiatni realistik va ba'zan sovuq ohangda ifodalaydi (masalan, "The Fish" she'rida).

Xotira va shaxsiy tajriba: Zulfiya she'rlarida ona va Vatan haqidagi his-tuyg'ularni ifodalasa, Bishop o'zlikni anglash va shaxsiy izlanishlarni tahlil qiladi ("In the Waiting Room").

Ayol obrazi: Zulfiya ayolni mehribon, matonatli, fidokor sifatida tasvirlaydi, Bishop esa ayollikni psixologik nuqtai nazardan murakkab va ironik tarzda aks ettiradi.

Yolg'izlik va begonalik: Bishop she'rlarida yolg'izlik, beqarorlik va begonalik tasvirlari ko'proq uchraydi, Zulfiya esa bu tushunchalarni milliy birlik va umid orqali yengadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. (1980). She'rlar to'plami. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
2. Bishop, E. (1983). The Complete Poems: 1927–1979. New York: Farrar, Straus and Giroux.
3. Karimov, N. (2002). O'zbek she'riyat tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Costello, B. (1991). Elizabeth Bishop: Questions of Mastery. Harvard University Press.
5. Sharifova, G. (2017). "Zulfiya ijodida ayol obrazining poetik talqini", Filologiya masalalari.
6. Sobirova, M. (2020). "Zulfiya she'riyatida ramz va obrazlar tizimi", Adabiyot nazariyasi jurnali.
7. Kalpakli, F. (2018). "Gender representations in modern poetry: A comparative analysis of Central Asian and Anglo-American traditions".
8. Tursunov, S. (2019). "Ingliz adabiyotida zamonaviy ayol shoirlar ijodi", Xorijiy filologiya ilmiy jurnali.